



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 362-368 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BYUDJET XARAJATLARI MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA “UCH BO‘G‘IN” MODELIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Jabborov Azamat Alijonovich



Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet xarajatlari moliyaviy nazoratini institutsional takomillashtirishda uch bo‘g‘in modelidan foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan. Bunda asosiy e‘tibor, dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni gorizontaal va vertikal tashkil etishda vakolatlar va javobgarlik markazlarini to‘g‘ri taqsimlashning ahamiyati va zaruriyati hamda bu bo‘yicha asosiy vazifalarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, dastlabki nazorat, joriy nazorat, vakolatlar taqsimoti, uch bo‘g‘inli himoya, xavflarni boshqarish, muvofiqlashtirish, ichki audit, tashqi audit, budjet xarajatlari, davlat budjeti.

Аннотация. В данной статье описаны возможности использования трехзвенной модели в институциональном совершенствовании финансового контроля бюджетных расходов. При этом основное внимание сосредоточено на важности и необходимости правильного распределения полномочий и центров ответственности при горизонтальной и вертикальной организации первоначального и текущего финансового контроля, а также основных задачах в этой связи.

Ключевые слова: финансовый контроль, первоначальный контроль, текущий контроль, распределение полномочий, трехуровневая защита, управление рисками, координация, внутренний аудит, внешний аудит, бюджетные расходы, государственный бюджет

Abstract. This article describes the possibilities of using the three-tier model in institutional improvement of financial control of budget expenditures. The main attention is paid to the importance and necessity of the correct distribution of powers and centers of responsibility in the horizontal and vertical organization of primary and current financial control, as well as the main tasks in this regard.

Key words: financial control, initial control, current control, division of powers, three-tier protection, risk management, coordination, internal audit, external audit, budget expenditures, state budget.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarishni sifat jihatidan yaxshilash maqsadida uning barcha bosqichlarini ilg‘or xalqaro tajribalar asosida isloh qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda davlat moliyasi shu jumladan uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan davlat budjetining xarajatlari moliyaviy nazoratini kuchaytirish

davlatning vazifa va funksiyalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashga xizmat qilish bilan ham favqulodda muhimdir.

Moliyaviy nazoratning iqtisodiy, moliyaviy mohiyati xususida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ulardagi farqlar asosan iqtisodiyot va moliya tizimining ko'lamini hamda rivojlanganlik darajasidan kelib chiqadi nazarimizda.

Xususan, O'zbekistonlik olimlar A.Vaxobov, T.Malikov moliyaviy nazoratga "moliyaga hos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishi"¹ deb ta'rif berishgan.

Mazkur ta'rifdan shuni anglashimiz mumkinki, olimlar tomonidan moliyaviy nazorat moliyaning vazifalaridan biri bo'lgan nazorat funksiyasining bajarilishini o'zida aks ettirishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, ularning fikricha moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qaralishi lozim²:

1. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy qonunchilik va intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyati;

2. Moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida mikro va makro darajadagi moliya va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas qismi.

O'zbekistonlik olimlarning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, ular tomonidan moliyaviy nazoratni moliya kategoriyasi funksiyasi sifatida baholashganini bizningcha moliya mavjud joyda uning nazorati ham albatta mavjud bo'lishi deb xulosalash mumkin. Bu esa o'z navbatida moliyaning kategoriya sifatidagi shakllanishi va shakllariga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga alohida ajratib ko'rsatilgan jihatlari moliyaviy nazoratning muvofiqlik va samaradorlikni nazorat qilishga bo'linishidir. Muvofiqlik nazorati moliyaviy oqimlarning normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini nazarda tutsa, samaradorlik u orqali erishiladigan samarani baholash deb qarash mumkin.

Shu bilan birga, olimlar tomonidan moliyaviy nazoratni moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida mikro va makro darajadagi moliya va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas qismi sifatida keltirilishi makro daraja sifatida respublika ijro etuvchi organlari va mikro daraja sifatida uning tarkibidagi budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etishni tadqiq etishga qaratilgan nazarimizda. Mazkur holat esa budjet xarajatlarini amalga oshirishda moliyaviy nazoratni tashkil etishni mikro va makro darajalarga bo'lish orqali tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

T.Malikov., Sh.Jalilov moliyaviy nazoratga nisbatan kengroq yondashib, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti ijrosining nazorat qilinishida budjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qilishi va tekshiruvdan o'tkazishi"³ sifatida ta'kidlashgan.

A.Ibragimov va B.Sugirbayev fikricha, davlatni boshqarish funksiyasining muhim funksiyalaridan biri bo'lgan moliyaviy nazorat moliyaviy resurslar xarakatining xamma

¹ Vaxobov A., Malikov T.. Moliya darslik Noshir 2011-y.

² Vaxobov A., Malikov T.. Moliya darslik Noshir 2011-y.

³ Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Budjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya" 2011-y.

jarayonlarini, jumladan, mablag'larni tashkil topish jarayonidan boshlab, xar qanday faoliyatni boshlashdan to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi⁴.

Bugungi kundagi eng rivojlangan moliyaviy nazorat tizimlari xalqaro ilg'or tajriba asosida shakllanganligini inobatga olib, moliyaviy nazoratning mohiyati va mazmuni yuzasidan xorijiy olimlarning fikrlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq nazarimizda.

Xorijiy olim N.Milyakov tomonidan ta'riflanishicha moliyaviy nazorat - moliyaviy va xo'jalik faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning eng muhim vositasi hisoblanadi. U xo'jasizlik va isrofgarchilikdan ogohlantiradi hamda tovar-moddiy qiymatliklar va pul mablag'larining o'g'irlanishi va suiste'mol qilinishi faktlarini aniqlaydi.⁵

N.Milyakov fikrini tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, u moliyaviy nazoratning muvofiqlik qismiga ya'ni qonuniylikni ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratgan.

A.Zudilin va F.Axmedov iqtisodiyotning bozor sharoitida amal qilishida moliyaviy nazorat tizimi ikki darajaga bo'linishini ta'kidlashgan. Ularning fikricha, "birincha darajada moliyaviy nazorat butun jamiyat manfaatlarini himoya qilishi va davlat tomonidan tartibga solinishi kerak"⁶. Bunda, u davlat budjeti va maxsus jamg'armalarga tushumlarni nazorat qilish hamda qonunchilik hujjatlari va davlat organlari tomonidan belgilangan moliya va hisob yuritish qoidalari, usullariga rioya qilinishini ta'minlashi kerak.

Bundan tashqari, xalqaro ilg'or tajribada davlat moliyasini boshqarish va uning tarkibida moliyaviy nazoratni tashkil qilish bo'yicha turli modellar ishlab chiqilgan va taklif etilgan.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlari tashkiliy tuzilmasini shakllantirish, uning tarkibiy bo'linmalari vakolatlari va vazifalari taqsimotini manfaatlar muvozanati hamda o'zaro tiyib turish tamoyillari asosida amalga oshirishda Xalqaro Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan "Uch bo'g'in" modelidan keng foydalanilmoqda(1-rasm). Mazkur modelda davlat organlari va tashkilotlarining maqsadlariga erishishdagi boshqaruv funksiyalari, moliyaviy nazorat hamda ularga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflardan himoyalanihning uch bo'g'ini keltirilgan.

Mazkur modelda tashkilotlarda "himoya tizimlari"ni yo'lga qo'yish keltirilgan bo'lib, har bir tashkilotda uning maqsadlariga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xodisalar(xavflar)dan (masalan, moliyaviy xato va kamchiliklar) samarali himoyani tashkil etish jarayoni ko'rsatib berilgan.

Bizningcha, bunday chegaralanish orqali moliyaviy nazorat tizimlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash osonlashadi. Chunki aniq qoidalar asosida tashkil etilgan tizimlarni o'zaro muvofiqlashtirish va tiyib turishni tashkil etish oson bo'ladi.

Moliyaviy nazoratning dastlabki, joriy va yakuniy turlarini uch bo'g'in modeli orqali tashkil etish ular o'rtasidagi gorizontaal va vertikal o'zaro farqlarni, mas'uliyat va javobgarlik markazlarini belgilash imkonini oshiradi. Bu esa o'z navbatida xar bir


⁴ Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B., Budjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. T.: "infoCOM.UZ" MCHJ nashriyoti. 2010 y.

⁵ Милляков Н.В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г

⁶ Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов

bo'g'inning vazifalarini bir-biridan ajratish asosida bir-birini taqozo etuvchi, to'ldiruvchi va tiyib turuvchi jarayonga keltirish mumkin.

Ushbu modelda uch bo'g'inning ikkitasi bevosita o'rta bo'g'in boshqaruvida joylashgan.



1-rasm. Uch bo'g'in modeli.⁷

Xavflardan himoya qilishning birinchi bo'g'ini bevosita xavflarga duch keluvchi tashkilotlar bo'lib, ular faoliyatning asosiy vazifalarini bajaradilar. Mazkur tuzilmalarda xavflarni minimallashtirish yoki ularni bartaraf etish orqali tashkilot maqsadlariga erishish nazarda tutiladi. Boshqaruv tarkibidagi birinchi bo'g'in vazifa va funksiyalarni bajarishda xavflarni boshqarish orqali namoyon bo'ladi. Unga ko'ra operatsion faoliyatning har bir bosqichida moliyaviy nazorat va xavflarni boshqarish yo'lga qo'yilishi lozim. Buni budjet tashkilotlari tizimiga tatbiq etadigan bo'lsak, institutsional jihatdan hududiy va quyi tashkilotlar tushunilsa, funksional jihatdan quyi tashkilotlarni boshqarish va moliyalashtirish bilan bog'liq masalalarni nazarda tutish mumkin.

Xavflardan himoya qilishning ikkinchi bo'g'ini birinchi bo'g'in himoyasida foydalaniladigan siyosatni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish hamda uning natijalarini monitoring qilishga tegishli boshqaruv funksiyalarini bajaradilar. Mamlakatimiz tajribasida ikkinchi himoya bo'g'inida davlat organlari va tashkilotlarining markaziy apparati tuzilmalaridagi gorizontal funksiyalar (masalan, strategik rejalashtirish va metodologiya, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish, axborot-tahlil va ijro

⁷ "Applying the Three Lines Model In the Public Sector" 9-bet. The Institute of Internal auditors (Xalqaro ichki auditorlar instituti.). Internet manba: www.theiia.org

intizomi, yuridik ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va moliya-iqtisod) ijrosini kiritishimiz mumkin.

Shuningdek, ikkinchi bo'g'inda birinchi bo'g'indagi xavflarni boshqarish jarayoni uchun yangi tizimlarni ishlab chiqiladi va yo'lga qo'yiladi.

Xavflardan himoya qilishning birinchi va ikkinchi bo'g'ini uchinchi bo'g'in sifatida belgilangan ichki auditdan tashkiliy va funksional jihatdan ajratilgan. Bu, o'z navbatida, ichki auditga tashkiliy mustaqillik berish asosida uning xolisligini ta'minlaydi, vazifaviy jihatdan manfaatlar to'qnashuvini oldini oladi hamda to'g'ridan-to'g'ri davlat organlari va tashkilotlari rahbariga taklif va tavsiyalar kiritish imkonini beradi.

Ichki audit xizmatlari birinchi va ikkinchi bo'g'in ishlashi va undagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni boshqarish jarayonining tashkilot maqsadlariga erishishni ta'minlashiga kafolat beradi hamda uni yanada yaxshilash bo'yicha o'zining maslahatlarini berib boruvchi tizim hisoblanadi.

Davlat organlari va tashkilotlarida "Uch bo'g'in" modelidan foydalanish tashkiliy va funksional taqsimotni oqilona amalga oshirish asosida maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishishda operatsion faoliyat, hisobdorlik va muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'z navbatida, "Uch bo'g'in" modelida keltirilgan birinchi va ikkinchi bo'g'in faoliyatini samarali tashkil etish va standartlashtirish moliyaviy nazoratni hususan uning dastlabki va joriy turlarini yanada kuchaytirish orqali moliyaviy xato va kamchiliklarni bartaraf etishiga xizmat qiladi.

1-jadval

Uch bo'g'in modelining tamoyillari⁸

	Tamoyillar	Mazmuni
1.	Boshqaruv	Mazkur modelda boshqaruv quyidagilarga imkon beradi: <ul style="list-style-type: none"> • Hisobdorlik va javobgarlik markazlarini aniq belgilash. • Xavfni boshqarishni nazarda tutuvchi mas'uliyatli harakatlar va resurslarni taqsimlash. • Mustaqil va xolis baholash va maslahat berish
2.	Boshqaruv organining vazifalari	Boshqaruv organi qarorlar qabul qilishning eng yuqori organi bo'lib, u tashkilot ichida nazoratni ta'minlaydi va oxir-oqibat manfaatdor tomonlarga (ya'ni, to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilikka yoki yuqori darajadagi tashkilot orqali) rahbarlik, siyosat va tashkilotni maqbul natijalarga yo'naltirish uchun javobgardir. Hisobot berishda halollik, shaffoflik va xolislik ustidan nazorat talab etiladi. Boshqaruv organi boshqaruv, risklarni boshqarish va nazorat

⁸ "Applying the Three Lines Model In the Public Sector" 9-bet. The Institute of Internal auditors (Xalqaro ichki auditorlar instituti). Internet manba: www.theiia.org

	Tamoyillar	Mazmuni
		qilish bo'yicha samarali choralar mavjudligini ta'minlashi, ichki audit xizmatlari orqali mustaqil, ob'ektiv va ishonchli maslahatlar berish tizimini o'rnatishi va nazorat qilishi kerak.
3.	Boshqaruv va birinchi va ikkinchi bo'g'in rollari	Boshqaruvchi boshqaruv organining rahbarligi va nazorati ostida (agar mavjud bo'lsa) birinchi darajali rollar va jarayonlarni belgilaydi, resurslarni qo'llaydi va siyosat maqsadlariga erishish uchun choralar ko'radi. Birinchi bo'g'in rollari aholiga xizmatlarni yetkazib berish, shu jumladan tegishli qo'llab-quvvatlash funksiyalari bilan bevosita bog'liq. Bunga ikkinchi bo'g'in rollari orqali yordam berishi mumkin bo'lgan strategiya va operatsiyalar bilan bog'liq xavflarni boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslardan foydalanish kiradi.
4.	Uchinchi bo'g'in rollari	Uchinchi bo'g'in rollari (ichki audit) boshqaruvdan mustaqil ravishda xolis, ishonchli maslahat berish uchun tadbirlari, baholashlar va kafolat beruvchilar kabi boshqa rollar bilan hamkorlikda yoki ulardan alohida ishlashi mumkin.
5.	Uchinchi bo'g'in mustaqilligi	Uchinchi bo'g'inda boshqaruv mas'uliyatidan va aralashuvdan mustaqil faoliyat yuritish ichki audit faoliyatining asosiy farqlovchisi hisoblanadi. Ichki audit tuzilmasi rahbari boshqaruv organiga to'g'ridan-to'g'ri hisobot berganida mustaqillik ta'minlanadi. Boshqaruv organi mavjud bo'lmagan taqdirda, ichki audit bo'limi rahbari qaror qabul qiluvchi yuqori organga hisobot berishi va mustaqillikni amalda va tashqi ko'rinishida optimallashtirishi kerak.
6.	Qiymatni yaratish va himoya qilish	Rollarning taqsimlanishidan qat'iy nazar, davlat siyosati va ustuvorliklari, tashkiliy maqsad va vazifalar bilan umumiy muvofiqlikni ta'minlash, asosiy xavflarga e'tiborli bo'lish, jamoatchilik javobgarligi va doimiy takomillashtirish uchun boshqaruvga barcha hissa qo'shuvchilar o'rtasida yaqin aloqa, hamkorlik va hamkorlik zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda uch bo'g'in modelini mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimiga tabiiq etish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Uch bo'g'in modelini budjet xarajatlarining moliyaviy nazorati tizimida foydalanishni o'z ichiga olgan konsepsiya ishlab chiqish;

2. Birinchi bo'g'in vakolatlari va dastlabki moliyaviy nazoratni o'zaro muvofiqlashtirish orqali asosiy e'tiborni xavflarni boshqarish jarayoniga qaratish;

3. Ikkinchi bo'g'in vakolatlari hamda joriy nazoratni muvofiqlashtirish orqali moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olishga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni mazkur bo'g'inga shakllantirish;

4. Uchinchi bo'g'in bo'lgan ichki audit tuzilmalari mustaqilligini ta'minlash maqsadida xar bir vazirlikda ichki audit qo'mitalari tashkil etish va uning tarkibiga tegishli vazirlikdan tashqari yuqori va boshqa vakolatli tashkilotlar vakillari hamda ekspertlarni kiritish;

5. Birinchi va ikkinchi bo'g'inning gorizontaal va vertikal tuzilmasini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish.

6. Uch bo'g'in modelini vazirlik va idoralar faoliyatidagi ichki nazorat jarayonlari bilan muvofiqlashtirish;

7. Uch bo'g'in modelini qonunchilik asoslarini yaratish va uning amal qilishini baholash tizimini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaxobov A., Malikov T.. Moliya darslik Noshir 2011 y.
2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Budjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya" 2011 y.
3. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B., Budjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. T.: "infoCOM.UZ" MCHJ nashriyoti. 2010 y.
4. Миляков Н.В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г
5. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г.
6. "Applying the Three Lines Model In the Public Sector" 9-bet. The Institute of Internal auditors (Xalqaro ichki auditorlar instituti.). Internet manba: www.theiia.org

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

